

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Олтиариқ тумани
Маҳалла ва нурнийларни
қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи
Р.Хамдамов
2022 й



Бажарувчи ташкилотни танлаб олиш учун

ТАНЛОВ ХУЖЖАТИ

Фарғона-2022 й

Танлов ҳужжатларининг мазмуни:

I. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома

II. Техник қисм

III. Нархлар қисми

ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА

1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ

Танлов предмети: Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Оқбўйра МФЙ ҳудудига истиқомат қилаётган аҳолини электр узатиш тармоқлари тортиш ва трансформаторлар ўрнатиш

1.2. Танловнинг юқори қиймати ҚҚС билан 188818500 сўм. Ушбу қийматдан ортик қийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва кўриб чиқилмайди.

1.3. Махсулот бўйича Техник топшириқ танлов ҳужжатларининг техник қисмда илова қилинган.

Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиққан бажарувчи ташкилот билан шартнома тузилади.

1.4. Ишларни бажариш муддати: Буюртмачи ва ғолиб бўлган қатнашчи билан шартнома имзоланган кундан бошланади.

1.5. Буюртмачи Пудратчига тегишли манзилли дастурга асосан маблағ ажратилганидан сўнг шартнома бўйича ишлар умумий жорий қийматининг 30% миқдорида аванс тўловини ўтказиб беради.

1.6. Жорий молиялаштириш бажарилган ишлар сифати текширилиб, қабул қилингандан сўнг берилган авансни пропорционал равишда ушлаб қолган ҳолда, бажарилган ишлар учун вилоят Молия бошқармаси томонидан объектнинг вилоят Ғазначилик бошқармасидаги махсус ҳисоб рақамига маблағ ажратилганидан сўнг объект умумий шартномавий қийматининг 70 фоизи доирасида амалга оширилади.

2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. Олтиариқ тумани Махалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш бўлими (бундан кейин "Буюртмачи" деб аталади) - танлов ташкилотчиси ҳисобланади.

"Буюртмачи" манзили: Ўзбекистон Республикаси, Фарғона вилоят, Олтиариқ тумани
2.2. Танлов "Буюртмачи" томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади

2.3. Танлов "Буюртмачи" томонидан тузилган харид комиссияси томонидан қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1. Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, камида 5 йил тажрибага эга бўлган барча юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар иштирок этиши мумкин.

3.2. Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қуйилади:

- шартномалар тузиш юзасидан фуқаролик-муомала ҳуқуқий лаёқат ва ваколатлар;
- ўз кучлари билан илгари бажарилган иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар;
- Лицензия, гувоҳнома;
- Танлов иштирокчисининг солиқ тўловларидан бўлган қарздорлик маълумоти;
- Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги 2 йиллик иш тажрибаси;
- Кафолат хати (буюртмачига ишларни таклиф қиймати, топшириш муддатини кўрсатиб тасдиқлаган ҳолда).

Низом маблағи миқдори.

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлиқ фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга рухсат этилади.

3.4. Қўйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга рухсат берилмайди: кайта ташкил этилиш (ажратилиши, қўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

4. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ

4.1. Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва ҳужжатлар, маълумотлар “Буюртмачи” ва “Иштирокчи” ихтиёрига кўра ўзбек ёки рус тилида тақдим этилиши мумкин.

4.2. танлов ҳужжатларида қўйидагилар тақдим этилиши лозим:

- Техник қисмда, “Буюртмачи” томонидан қўйилган техник талаблар асосида, бажариладиган иш ва хизматлар кўрсатилиши керак;
- Нархлар қисми, Танлов шартларида белгиланган нархлар доирасида, хизматларни бажариш муддатлари, тўловлар тартиби, якуний тўловлар ва бошқа боғлиқ кўрсаткичлар кўрсатилган бўлиши керак.

Танлов иштирокчилари ҳар бир талаблар бўйича ўз таклифларини яхлит ҳолда PDF форматда, ваколатли шахс имзоси ва муҳр билан тасдиқланган ҳолда ёки ҳар бир варағини муҳрлаб тасдиқланган ҳолда электрон равишда платформага жойлаштириши лозим.

4.3. Қўйидаги ҳужжатлар тўлиқ бўлиши талаб этилади:

Техник ва нархлар бўйича қўйидаги таклифлар:

- Техник ҳужжатлар рўйхати (брошюралар, техник паспортлар ёки ўхшаш ҳужжатлар рўйхати илова қилинади);
- Нархлар таклифи ва нархлар бўйича жадвал тўлдирилиши ва илова қилиниши лозим.

4.4. Танлов иштирокчиси:

- фақат битта таклиф бериши мумкин;
- тақдим этилаётган ҳужжатларнинг ҳақиқийлиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига тўлиқ жавобгар бўлади;
- таклифлар бериш муддати тугагунга қадар ўз таклифларини қайтариб олиш ёки ўзгартириш киритиш ҳуқуқига эга.

5. ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ МУДДАТИНИ УЗАЙТИРИШ

5.1. Таклифлар муддатини узайтирилиши фақат харид комиссияси йигилиши қарори асосида амалга оширилади.

5.2. Танлов муддатини узайтириш тўғрисидаги қарор махсус ахборот порталида жойлаштирилиши лозим.

6. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

6.1. Давлат харидлари тўғрисидаги Қонун талабларини бузган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар

6.2. Харид комиссияси давлат харидлари бўйича қонунчиликда белгиланган тартибда ғолиб иштирокчиларни аниқлаш ва асосланган қарор қабул қилиш бўйича мажбурдир.

6.3. Танлов иштирокчиси тақдим этилган барча ҳужжатларни ҳақиқийлиги ва тўғрилиги жавобгардир. Ғолиб иштирокчи деб топилгандан сўнг қонунчиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан ўрнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

7. БОШҚА ШАРТЛАР

7.1. Давлат буюртмачиси танлов ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида танловда иштирок этиш учун таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин қарор қабул қилишга ҳақли. Товари (ишни, хизматни) ўзгартиришга йўл қўйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддат танлов ҳужжатларига ўзгартишлар киритилган санадан эътиборан камида ўн кунга узайтирилиши керак. Шу билан бир вақтда, агар эълонда

кўрсатилган ахборот ўзгартирилган бўлса, танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонга ўзгартишлар киритилади.

7.2. Танлов иштирокчиси танлов ҳужжатлари қоидаларини танлов ўтказиш учун эълонда белгиланган шаклда тушунтириш талаби билан давлат буюртмачисига сўров юборишга ҳақли. Сўров келиб тушган санадан эътиборан икки иш куни ичида давлат буюртмачиси, агар мазкур сўров давлат буюртмачисига таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида икки кун олдин келиб тушган бўлса, ушбу сўровга белгиланган шаклда жавоб юбориши шарт. Танлов ҳужжатларининг қоидаларига доир тушунтиришлар уларнинг мазмун-моҳиятини ўзгартмаслиги керак.

7.3. Таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси харид комиссиясининг барча аъзолари томонидан имзоланади ҳамда ундан олинган кўчирма у имзоланган кундан эътиборан уч иш куни ичида махсус ахборот порталида эълон қилинади.

7.4. Танловнинг исталган иштирокчиси таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси эълон қилинганидан сўнг давлат буюртмачисига танлов натижаларига доир тушунтиришларни тақдим этиш тўғрисида сўров юборишга ҳақли. Давлат буюртмачиси бундай сўров келиб тушган санадан эътиборан уч иш куни ичида танлов иштирокчисига тегишли тушунтиришларни тақдим этиши шарт.

7.5 Танлов натижалари бўйича шартнома танлов ҳужжатларида ва ўзи билан шартнома тузилаётган танлов иштирокчиси томонидан берилган таклифда кўрсатилган шартлар асосида тузилади.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Фарғона вилояти

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy tel 73)-244-68-81 244-68-82 mail: fergexp@rambler.ru
www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: DJALILOV MURADJAN MAXMUDJANOVICH

Sana:17-07-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 51385

Obyekt nomi «Fargona viloyati Oltiariq tumani Oqbo'yra m.f.y. Oqbo'yra ko'chasi transformator punkti hamda elektr uzatish tayanch ustunlari qurish (o'rnatish)»

Buyurtmachi - FARG'ONA GARANT LOYIXA SERVIS XK

Bosh loyihachi - "Fargona garant loyixa servis" x/k

Litsenziya 04.07.2020y/AL-001195-sonli

Moliyalashtirish manbai - Farg'ona viloyati maxalliy byudjeti mablag'lari xisobidan

Bosh pudratchi - Tender savdolari asosida (agar qaror qabul qiluvchi organ tomonidan belgilangan bo'lsa)

Qurilish turi Qurilish.

Murojaat raqami: № 48575

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining 10.05.2022 yil kungi VI-47-48-11-151-K/22-sonli Qarori.

1.2. Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani xokimining 10.05.2022 yildagi VI-47-48-11-151-K/22-sonli Qarori.

1.3. Arxitektura va Qurilish boshqarmasi tomonidan 24.06.2022 yilda berilgan 1730-1730203-45180 -sonli Arxitektura va Rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.

1.5. Muhandislik tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari, muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyixa tarkibiga ko'ra elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyixa smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyihaga doir ma'lumotlar.

Loyixa-10/0,4kV elektr uzatish liniyalarini qurish va o'rnatishga qaratilgan. Loyixa -10/0,4kV elektr uzatish liniyalarini qurish va o'rnatishga qaratilgan. Iste'molchilarning yuklamalari ularning texnik xususiyatlariga muvofiq olindi. Loyixalashtirishda quyidagi materiallardan foydalanildi: Elektr uskunalarining tuzilishi va qoidalari. Elektr qurilmalarini loyixalash bo'yicha ko'rsatmalar. Odatdagidek loyixalar. Iste'molchining

elektr ta'minotidagi toifasi 3 xisoblanadi. Umumiy xisoblangan quvvat - 69,0 kVt Ishchi kuchlanishi 380/220 V. Loyixada axoli xonadonlari uchun o'rnatilgan 94-sonli quvvati 100kVA bo'lgan transformator punkti elektr yuklamasini yengillashtirish maqsadida aloxida quvvati 100kVA bo'lgan transformator punkti o'rnatish nazarda tutilgan. Loyixalanayotgan axoli xonadonlari gazlashtirilganligini va elektr ta'minoti korxonasi xodimlarini takidlashlarini xisobga olib elektr yuklamalari 1,5kVt etib belgilandi va shu quvvat buyicha loyixa ishlab chiqildi.

Loyixalashga olingan ob'yektning elektr ta'minoti 35/10 "Zilxa" podstansiyasidan chiquvchi 10kVli "Lochin" uzatmasidagi mavjud tayanchidan olingan. Loyixada quvvati 100kVAli, KTPs turli transformator punkti o'rnatish va 363metr 10kVli xavo tarmogi qurish kursatilgan. 10kVli xavo tarmogi qurishda AS-35 va turli o'tkazgichdan, SV110-3,5 turli tayanchdan foydalanigan. Ulanish nuqtadagi tayanchga turi RLND-10 bo'lgan ajratgich urnatish nazarda tutilgan. Kabelning kesim yuzasi xisoblangan quvvatga va masofa uzunligida kuchlanish yuqolishini xisobga olib tanlangan.

Quyi kuchlanishli elektr uzatish liniyalari. 0,4kVli elektr ta'minotida turi SIP2, SIP4 bo'lgan o'tkazgichlardan A26, P26 turli tayanchlardan foydalanilgan. KTPs dan elektr o'tkazgichlari "EUTK" qoidalariga amal qilagan xolda olib boriladi. Loyixada transformator punktidan tayanchlarga va tayanchlar aro SIP2 3x35+1x50 o'lchamli va tayanchlardan axoli xonadonlariga SIP4 2x16 o'lchamli o'tkazgichlardan foydalanish ko'rsatib o'tilgan.

3.2. 10 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalarining konstruktiv ishlari.

Atmosfera o'ta kuchlanishdan ximoyalash.

Yerlash. EUTK qoidalariga asosan 20kV gacha bulgan xavo liniyalarini o'ta kuchlanishdan ximoya qilish talab etilmaydi. 10/0,4kV podstansiyasini o'ta kuchlanishdan ximoyalash, podstansiya to'plamiga kiritilgan o'ta kuchlanishdan ximoyalash vositasi (razryadnik) orqali amalga oshiriladi.

Elektr energiya xisobi. Elektr energshiyasini iste'mol kilish texnik shartlar talabiga muvofik xisobga olinadi. ASKUE texnik vositalariga ega bulgan elektr energiya xisoblagichi "Elektron xisoblagich" yordamchi korxonasining uskunalari va dasturiy ta'minoti asosida qabul qilindi. ASKUE elektr xisoblagichi uyali aloka tarmogiga ega GSM modem va antenna orqali ma'lumotlarni kerakli tashkilotlarga uzatib turadi. Urnatilgan transformator punktini quyi kuchlanish tomoniga elektr xisoblagich urnatilishi nazarda tutilgan. Ko'cha yoritish tizimi uchun xam aloxida elektr xisoblagich o'rnatish ko'rsatib o'tilgan.

Elektr ta'minoti ishonchliligi. Elektr ta'minoti ishonchliligida kuchlanish pasayishi kuzatilganda markazlashtirilgan sozlash orqali va transformatoridagi sozlash kurilmasi (ansaft) orkali sozlash mumkinlagi kuzda tutilgan.

Operatsion masalalar. 10kV va 0,4kV elektr uzatish liniyalariga va uskunalariga xizmat ko'rsatish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, YOXX va TXK qoidalari bo'yicha ma'sus sinovlardan utgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

3.3. Shu jumladan qurilishda ko'zda tutilgan ishlar batafsil taqdim etilgan loyixalar, loyixa topshirig'i va tushuntirish yozuvida ko'rsatib o'tilgan).

4. Loyixalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Muxandislik tizimlari texnik shart, loyiha topshirig'iga muvofiq jixozlangan. (Elektron taqdim etilgan albomlarda batafsil ko'rsatilgan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muxandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko'rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko'rsatib o'tilgan).

6.4. Buyurtmachi jami xarajati, ish xaqqi 12114,89 so'm/chelchas (ijtimoyi sug'urta siz), pudratchining boshqa xarajatlari 19,39% va obyektning materiallar qiymati buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami bo'lib 267 765,103 ming so'm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quydagi ko'rsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish qiymati QQS siz	- 222 657,920 ming so'm
QQS 15%	- 33 398,688 ming so'm
Qurilish qiymati QQS bilan	- 256 056,608 ming so'm
Buyurtmachining xarajatlari	- 7 256,826 ming so'm
Jami obyekt qiymati QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan	- 263 313,434 ming so'm
Iqtisod qilingan mablag'	- 4 451,669 ming so'm

6.5. Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi.

6.6. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga muvofiq 4-ilo va, II bob 8-band va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchlili bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani Oqbo'yra MFY xududida aholi honadonlari uchun o'rnatilgan mavjud transformator punktini yuklamasini yengillashtirish maqsadida alohida transformator punkti o'rnatish va aholi honadonlarini taqsimlash elektr ta'minoti loyihasi, loyiha-smeta xujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Ko'rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to'g'risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

7.4. Taqdim etilgan xujjatlarning to'g'riligiga buyurtmachi javobgardir.

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Олтиариқ тумани
Махалла ва нурнийларни
қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи
Р.Хамдамов
 2022 й

ТЕХНИК ТОПШИРИҚ

Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Оқбўйра МФЙ худудига истиқомат қилаётган аҳолини электр узатиш тармоқлари тортиш ва трансформаторлар ўрнатиш учун

№	Асосий маълумотлар	Бажарувчи
1.	Объект номи	Фарғона вилояти Оқбўйра мфй, Оқбўйра кўчасидаги дренаж учун қўйилган электр ТП химояланган симларга алмаштириш, электр узатиш тармоқлари тортиш ва трансформаторлар ўрнатиш.
2.	Объектни жойлашуви	Олтиариқ тумани Оқбўйра МФЙ
3.	Лойихалаш учун асос	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 март кунги ПФ-6186- сонли Фармони, Фарғона вилояти ҳокимининг 2022 йил 29 апрел кунги 175-11-0-F/22- сонли фармойиши
4.	Буюртмачи	Олтиариқ тумани ҳокимлиги
5.	Буюртмачи манзили	Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Махалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш бўлими
6.	Иштирокчилар учун талаблар	Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Оқбўйра МФЙ худудига истиқомат қилаётган аҳолини электр узатиш тармоқлари тортиш ва трансформаторлар ўрнатиш учун
7.	Харид режа жадвали	2022 й. йиллик
8.	Танлов ўтказиш оyi	июль 2022 йил
9.	Танловнинг энг юқори қиймати (ҚҚС билан)	188 818 500 сўм ушбу қийматдан ортиқ қийматдаги таклифлар кўриб чиқилмайди
10.	Молиялаштириш манбаи	Бюджет ҳисобидан
11.	Товар ва хизматлар етказиб бериш манзили шакли	Фарғона вилояти Олтиариқ тумани
12.	Товар ва хизматларни бажариш муддати	15 иш куни
13.	Таклифларни тақдим қилиш тартиби ва шакли	Ўзбекистон Республикаси қонунда кўрсатилган тартибга асосан
14.	Таклифларни тақдим қилиш муддати	5 иш кунидан кам бўлмаган муддатда